2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK 159.928.22:37.015.3

Pirimbetov Baxit Allaboyevich,
Innovatsion texnologiyalar universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti v.v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada ta'lim muassasalarida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Unda iqtidorli bolalarni aniqlash mezonlari, ularning bilish, intellektual va ijodiy xususiyatlari, shuningdek, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash tamoyillari ochib berilgan. Iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirish bosqichlari, individual ishlarni tashkil etish, fan olimpiadalari, intellektual o'yinlar, ko'rik-tanlovlar hamda sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratilgan. Iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash jarayonida fan o'qituvchilari, psixologlar, ta'lim muassasasi rahbarlari, sinf rahbarlari va ota-onalarning asosiy vazifalari belgilangan. Iqtidorli bolalar ma'lumotlar bankini yaratish, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish uchun qulay ta'limiy muhit yaratish zarurligi asoslangan. Shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va amaliyotda ro'yobga chiqarishda psixologik diagnostika hamda tizimli pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: iqtidorli o'quvchilar, iqtidorli bolalar, iqtidorlilik, qobiliyat, intellektual rivojlanish, ijodiy qobiliyatlar, psixologik diagnostika, pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual ta'lim, ta'lim muhiti.

ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ОДАРЁННЫХ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье рассматриваются основные направления организации работы с одарёнными учащимися в образовательных учреждениях. Раскрываются критерии выявления одарённых детей, их познавательные, интеллектуальные и творческие особенности, а также педагогические и психологические принципы сопровождения. Особое внимание уделяется этапам выявления и развития одарённости, организации индивидуальной работы, проведению олимпиад, интеллектуальных игр, конкурсов и других внеклассных мероприятий. Определены основные задачи педагогов, психологов, руководителей образовательных учреждений, классных руководителей и родителей в процессе поддержки одарённых

учащихся. Обоснована необходимость создания банка данных об одарённых детях, разработки индивидуальных образовательных программ и формирования благоприятных условий для развития их интеллектуального, творческого и личностного потенциала. Также раскрывается значение психологической диагностики и системного педагогического сопровождения в процессе формирования и реализации способностей учащихся.

Ключевые слова: одарённые учащиеся, одарённые дети, одарённость, способности, интеллектуальное развитие, творческие способности, психологическая диагностика, педагогическое сопровождение, индивидуальное обучение, образовательная среда.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IDENTIFYING AND DEVELOPING GIFTED STUDENTS

Annotation. The article examines the main directions of organizing work with gifted students in educational institutions. It describes the criteria for identifying gifted children, their cognitive, intellectual, and creative characteristics, as well as the pedagogical and psychological principles of their support. Particular attention is paid to the stages of identifying and developing giftedness, organizing individual work, and conducting olympiads, intellectual games, competitions, and other extracurricular activities. The article defines the main tasks of teachers, psychologists, educational institution administrators, class teachers, and parents in supporting gifted students. The importance of creating a database of gifted children, developing individual educational programs, and establishing favorable conditions for the development of their intellectual, creative, and personal potential is emphasized. The role of psychological assessment and systematic pedagogical support in identifying, developing, and realizing students' abilities is also highlighted.

Keywords: gifted students, gifted children, giftedness, abilities, intellectual development, creative abilities, psychological assessment, pedagogical support, individualized education, educational environment.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat o'quvchilarga puxta bilim berish, balki ularning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va intellektual salohiyatini o'z vaqtida aniqlash hamda rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, iqtidorli o'quvchilar bilan maqsadli va tizimli ishlash ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqotga qiziqadigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi [1; 3].

Iqtidor insonning muayyan faoliyat turida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini belgilovchi murakkab psixologik hodisa bo'lib, uning namoyon bo'lishi faqat yuqori akademik natijalar bilan chegaralanmaydi [3; 4]. Ayrim

o‘quvchilarda iqtidor matematik yoki tabiiy fanlarni o‘zlashtirishda namoyon bo‘lsa, boshqalarida til, san’at, sport, texnika, yetakchilik, ijodkorlik yoki tadqiqotchilik faoliyatida ko‘zga tashlanishi mumkin. Shu sababli iqtidorni aniqlashda faqat baholar yoki olimpiada natijalariga tayanish yetarli emas. O‘quvchining bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topishi, motivatsiyasi va muayyan faoliyatga bo‘lgan qiziqishi ham hisobga olinishi lozim [3; 4; 6].

Ta’lim muassasasida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va rivojlantirish jarayoni oila, pedagoglar, amaliyotchi psixologlar va ta’lim muassasasi rahbariyatining hamkorligini talab etadi. Bunda o‘quvchining individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, uning qiziqish va ehtiyojlariga mos ta’limiy sharoit yaratish, mustaqil izlanishiga imkon berish hamda ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish muhimdir [3; 6].

Mazkur maqolaning maqsadi iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik asoslarini yoritish, ta’lim muassasasida iqtidor bilan ishlashning samarali yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Iqtidor va qobiliyat muammosi psixologiya hamda pedagogika fanlarining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda insonning individual imkoniyatlari, intellektual salohiyati, bilish jarayonlari, ijodkorligi va faoliyat motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratilgan [3; 4; 6].

I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limotida insonning individual-psixologik xususiyatlarini tushuntirishda birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o‘zaro munosabati muhim o‘rin tutadi. Olim tomonidan ajratilgan “badiiy” va “fikrlovchi” tiplar inson faoliyatida obrazli va mantiqiy tafakkurning turlicha namoyon bo‘lishini tushuntirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning bilish faoliyatidagi individual farqlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [8].

E.G‘. G‘oziyevning psixologiyaga oid tadqiqotlarida shaxsning bilish jarayonlari, muloqot xususiyatlari, tafakkur va individual-psixologik jihatlariga katta e’tibor berilgan [3]. Ushbu qarashlar iqtidorli o‘quvchilarni o‘rganishda ularning faqat bilim darajasini emas, balki bilish jarayonlari va shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi [3].

R.S. Nemov psixologik jarayonlar va shaxsning individual xususiyatlarini o‘rganishda diagnostik yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydi [4]. Iqtidorni aniqlash jarayonida psixologik diagnostikadan foydalanish o‘quvchining intellektual imkoniyatlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish imkonini beradi [4; 7].

B.G. Ananyev insonni faoliyat subyekti va tadqiqot obyekti sifatida kompleks o‘rganish zarurligini ilgari surgan [6]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, iqtidorli o‘quvchini ham faqat biror test natijasi asosida emas, balki uning ta’lim jarayonidagi

faoliyati, ijtimoiy munosabatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi va rivojlanish dinamikasi bilan birgalikda o‘rganish maqsadga muvofiqdir [6].

F. Burlachukning psixodiagnostikaga oid qarashlari esa individual psixologik xususiyatlarni aniqlashda diagnostik vositalardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish masalasini yoritadi. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashda psixodiagnostika pedagogik kuzatuv, suhbat, o‘quv faoliyati natijalari va ota-onalar bilan muloqot kabi usullar bilan birgalikda qo‘llangandagina samarali natija berishi mumkin [6; 7].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili iqtidorni birgina intellektual ko‘rsatkich bilan izohlash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Iqtidor — intellekt, ijodkorlik, motivatsiya, qiziqish, muayyan faoliyatga moyillik va shaxsning individual xususiyatlari bilan bog‘liq murakkab hodisadir [3; 4; 6]. Shu bois ta’lim amaliyotida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashning kompleks yondashuviga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning individual imkoniyatlarini kompleks o‘rganish, ta’lim jarayonini individualizatsiya va differensiallashtirish, pedagogik hamda psixologik kuzatuvni uyg‘unlashtirish tamoyillari tashkil etadi.

Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish, psixologik diagnostika, ijodiy topshiriqlar, individual baholash va ekspert baholash kabi usullardan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchining dars jarayonidagi faolligi bilan bir qatorda, darsdan tashqari faoliyati ham o‘rganiladi.

Pedagogik kuzatuv orqali o‘quvchining savol berishga moyilligi, mustaqil fikrlashi, murakkab topshiriqlarni bajarishga qiziqishi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yondashishi va yangi bilimlarni egallash tezligi aniqlanadi. Psixologik diagnostika esa ushbu kuzatuvlarni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldiradi [4; 7].

Metodologik jihatdan eng muhim jihatlardan biri — iqtidorni bir martalik diagnostika natijasi asosida belgilamaslikdir. O‘quvchining qobiliyati vaqt davomida rivojlanishi mumkinligi sababli diagnostik jarayon muntazam kuzatuv va qayta baholash bilan davom ettirilishi lozim.

Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash mezonlari. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, unda bir nechta mezonlarni birgalikda hisobga olish talab etiladi. Avvalo, bunday o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi kuzatiladi. Ular yangi ma’lumotlarni mustaqil izlashga, savollar berishga va mavjud bilimlar bilan cheklanib qolmaslikka intiladilar [3; 4].

Iqtidorning muhim belgilaridan biri yuqori darajadagi intellektual faollikdir. O‘quvchi murakkab masalalarni yechishda qat’iyatlilik ko‘rsatishi, muammoning bir nechta yechimini taklif qilishi yoki odatiy usullardan farqli yondashuvni tanlashi mumkin. Bunday holatlarda o‘quvchining faqat yakuniy natijasini emas, balki topshiriqni bajarish jarayonidagi fikrlash usulini ham baholash muhim.

Ijodkorlik ham iqtidorni aniqlashning muhim mezonlaridan biridir. O‘quvchining yangi g‘oya yaratishi, mavjud bilimlardan yangi vaziyatlarda

foydalanishi, muammoga o‘ziga xos yondashishi va mustaqil xulosa chiqarishi uning ijodiy salohiyatidan dalolat berishi mumkin.

Shuningdek, ayrim o‘quvchilarda ma’lum bir fan yoki faoliyat yo‘nalishiga nisbatan alohida qiziqish va qobiliyat namoyon bo‘ladi. Masalan, matematika, fizika, informatika, biologiya, ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, musiqa, tasviriy san’at yoki sport yo‘nalishlaridagi maxsus qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida aniqlanishi mumkin [3; 6].

Bunda akademik natijalari yuqori bo‘lmagan o‘quvchilarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Ba’zan bolaning mavjud intellektual salohiyati uning baholarida to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin. Bunga motivatsiyaning pasayishi, ta’lim uslubining o‘quvchi ehtiyojiga mos kelmasligi, psixologik omillar yoki boshqa individual sharoitlar sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas [3; 6].

Iqtidorli o‘quvchilarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari. Iqtidorni aniqlashning o‘zi yetarli emas. Aniqlangan qobiliyatni rivojlantirish uchun o‘quvchiga mos ta’lim muhiti, metod va vositalar tizimini yaratish talab etiladi. Iqtidorli o‘quvchi odatiy o‘quv topshiriqlaridan tashqari, uning imkoniyatlarini kengaytiradigan murakkabroq, tadqiqotga yo‘naltirilgan va ijodiy topshiriqlarga ehtiyoj sezadi [4; 6].

Bunday o‘quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchining qiziqishi, tayyorgarlik darajasi va rivojlanish sur’atini hisobga olgan holda qo‘shimcha topshiriqlar, mustaqil izlanishlar va kichik tadqiqot loyihalarini taklif qilishi mumkin.

Iqtidorli o‘quvchilarni rivojlantirishda o‘qituvchining roli faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki yo‘naltiruvchi va maslahatchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘quvchiga mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash va faoliyat natijasini tahlil qilish imkoniyatining berilishi uning intellektual mustaqilligini rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Yuqori qobiliyatga ega o‘quvchi ham tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatish, jamoada ishlash, muvaffaqiyatsizlikni qabul qilish va o‘z imkoniyatlarini real baholash kabi ko‘nikmalarga ehtiyoj sezadi.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash bosqichlari. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi — analitik bosqich. Ushbu bosqichda o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyati kuzatiladi, ularning qiziqishlari, bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va muayyan fanlarga moyilligi o‘rganiladi. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi iqtidor namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar doirasini aniqlashdan iborat.

Ikkinchi — diagnostik bosqich. Bu bosqichda o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va individual-psixologik xususiyatlari chuqurroq o‘rganiladi. Psixologik diagnostika natijalari pedagogik kuzatuv va o‘quv faoliyati natijalari bilan taqqoslanadi [6; 7]. Ayniqsa, 5–9-sinflarda o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi va maxsus qobiliyatlarini aniqlash uchun tizimli monitoring olib borish muhimdir.

Uchinchi — rivojlantiruvchi bosqich. Aniqlangan qobiliyatlarni rivojlantirish uchun individual ta'lim yo‘nalishlari belgilanadi. O‘quvchi olimpiada, tanlov, to‘garak, loyiha, tadqiqot va boshqa ijodiy faoliyatlarga jalb qilinadi. Shu bilan birga, uning ijtimoiy moslashuvi, jamoada ishlashi va ijobiy ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishga ham e'tibor qaratiladi.

Ta'lim muassasasi rahbariyati, pedagoglar va psixologlarning vazifalari. Iqtidorli o‘quvchilar bilan samarali ishlash butun ta'lim muassasasining hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladi. Ta'lim muassasasi rahbariyati, avvalo, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash uchun zarur tashkiliy va pedagogik sharoitlarni yaratishi lozim. Buning uchun fan to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, olimpiada va tanlovlarga tayyorgarlikni tizimlashtirish, o‘quvchilarning yutuqlarini monitoring qilish hamda ular haqidagi ma'lumotlarni muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq.

Sinf rahbarlari o‘quvchining umumiy faoliyati, qiziqishlari va individual xususiyatlarini kuzatib borib, fan o‘qituvchilari hamda ota-onalar bilan zarur hamkorlikni tashkil etadi. Fan o‘qituvchilari esa o‘z faniga bo‘lgan alohida qiziqish va qobiliyatni aniqlash, o‘quvchini murakkabroq topshiriqlarga jalb qilish hamda mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun mas'ul hisoblanadi.

Amaliyotchi psixologning faoliyati esa iqtidorli o‘quvchilarni psixologik-pedagogik jihatdan kuzatish, diagnostik tadbirlarni tashkil etish, individual va guruhiy maslahatlar o‘tkazish, o‘qituvchi hamda ota-onalarga tegishli tavsiyalar berishni qamrab oladi [4; 7]. Shuningdek, iqtidorli o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi va emotsional holatini hisobga olgan holda individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda psixologning ko‘magi muhimdir.

Iqtidorli o‘quvchilarni rivojlantirish shakllari. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda ta'limning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda, o‘quvchining mustaqil va ijodiy faoliyatini kuchaytiruvchi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Fan olimpiadalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ko‘rik-tanlovlar, intellektual o‘yinlar, fan to‘garaklari, loyiha va tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

O‘quvchining qiziqishiga mos ravishda kichik tadqiqot topshiriqlarini berish uning ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday faoliyat davomida o‘quvchi muammoni belgilash, ma'lumot to‘plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z fikrini himoya qilishni o‘rganadi.

Sinfdan tashqari faoliyat ham iqtidorni rivojlantirishning muhim vositasidir. To‘garaklar va ijodiy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘z tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish va o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Natijalar va muhokama. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashni tizimli tashkil etish ta'lim jarayonida bir qator ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Avvalo, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash imkoniyati kengayadi. Keyinchalik ushbu ma'lumotlar asosida o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish va ularga mos pedagogik yondashuvlarni tanlash mumkin bo‘ladi [6; 7].

Iqtidorli o‘quvchilar ma’lumotlar bankining shakllantirilishi ta’lim muassasasiga o‘quvchilarning yutuqlarini tizimli ravishda monitoring qilish imkonini beradi. Bunday ma’lumotlar bazasida o‘quvchining qiziqish sohasi, erishgan natijalari, ishtirok etgan tanlov va olimpiadalari, rivojlanish dinamikasi hamda unga ko‘rsatilayotgan pedagogik yordam haqida ma’lumotlar aks ettirilishi mumkin.

Tizimli yondashuv natijasida o‘quvchilarning fan olimpiadalari, ijodiy tanlovlar, ilmiy loyihalar va sport musobaqalaridagi ishtiroki uchun kengroq imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning ham iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha metodik kompetensiyasi oshadi.

Muhim jihat shundaki, iqtidorni rivojlantirish faqat yuqori natijaga erishgan o‘quvchilar bilan ishlashni anglatmaydi. Ta’lim jarayonida hali to‘liq namoyon bo‘lmagan salohiyatni aniqlash va uni rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratish zarur. Shu nuqtayi nazardan, muntazam pedagogik kuzatuv va psixologik-pedagogik diagnostika iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [7].

Xulosa. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va rivojlantirish ta’lim jarayonining alohida yo‘nalishi sifatida tizimli, izchil va individual yondashuvni talab qiladi. Iqtidorni faqat yuqori baholar yoki olimpiada natijalari bilan baholash o‘quvchining real salohiyatini to‘liq aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli pedagogik kuzatuv, psixologik diagnostika, suhbat, ijodiy topshiriqlar va o‘quv faoliyati natijalarini kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Iqtidorli o‘quvchi uchun qulay ta’lim muhiti yaratishda o‘qituvchi, psixolog, sinf rahbari, ta’lim muassasasi rahbariyati va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. O‘quvchiga o‘z qobiliyatini mustaqil namoyon etish, ijodiy izlanish, tadqiqot olib borish va o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish uchun yetarli sharoit yaratilishi lozim.

Ta’lim muassasalarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun, birinchidan, iqtidorni aniqlashning kompleks mezonlarini ishlab chiqish; ikkinchidan, o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muntazam yangilab boruvchi ma’lumotlar bankini shakllantirish; uchinchidan, individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish; to‘rtinchidan, fan o‘qituvchilari va psixologlarning mazkur yo‘nalishdagi metodik kompetensiyasini oshirish; beshinchidan, o‘quvchilarni olimpiada, tanlov, loyiha va tadqiqot faoliyatiga muntazam jalb etish zarur.

Umuman olganda, iqtidorni o‘z vaqtida aniqlash, uni pedagogik va psixologik jihatdan to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratish nafaqat alohida o‘quvchining shaxsiy muvaffaqiyatiga, balki ta’lim muassasasining intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 96 b.
2. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: v 2 t. T. 1. – Moskva: Mir, 1992. – 496 s.
3. G‘oziyev E.G‘. Muomala psixologiyasi. – Toshkent, 2001.
4. Nemov R.S. Psixologiya. Kn. 1. – Moskva, 2003.
5. Gamilton Ya.S. Chto takoe psixologiya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002.
6. Ananyev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2001.
7. Burlachuk F. Psixodiagnostika. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694